

SOLIQ RAG'BATLANTIRISHLARI ORQALI KLASTERLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Xudoyqulov Sirojiddin Uzoq o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil izlanuvchisi

E-mail: khudaykulov.s.u@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada klasterlar samaradorligini oshirishda soliq rag'batlantirish mexanizmlarining iqtisodiy ahamiyati tahlil qilindi. Tadqiqotda klasterlashuvning nazariy asoslari va soliq imtiyozlarining investitsiya, innovatsiya hamda ishlab chiqarish samaradorligiga ta'siri o'rganildi. Xorijiy tajriba va milliy amaliyot qiyosiy baholandi. Natijada soliq siyosatini takomillashtirish orqali klasterlarning raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatlari asoslab berildi. Tadqiqot natijalari hududiy rivojlanishni jadallashtirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: klaster, soliq rag'batlantirish, iqtisodiy samaradorlik, investitsiya, innovatsiya, raqobatbardoshlik, soliq siyosati

Аннотация

В статье проанализирована экономическая роль налоговых стимулов в повышении эффективности кластеров. Рассмотрены теоретические основы кластеризации и влияние налоговых льгот на инвестиции, инновации и производственную эффективность. Проведено сравнительное исследование зарубежного опыта и национальной практики. Обоснованы возможности повышения конкурентоспособности кластеров за счет совершенствования налоговой политики. Результаты исследования показали практическую значимость для ускорения регионального развития и обеспечения экономической устойчивости.

Ключевые слова: кластер, налоговые стимулы, экономическая эффективность, инвестиции, инновации, конкурентоспособность, налоговая политика

Abstract

The article analyzed the economic role of tax incentives in improving cluster efficiency. The study examined theoretical foundations of clustering and the impact of tax benefits on investment, innovation, and production efficiency. A comparative assessment of international experience and national practice was conducted. The findings justified opportunities to enhance cluster competitiveness through improved tax policy. The results demonstrated practical relevance for accelerating regional development and ensuring economic stability.

Keywords: cluster, tax incentives, economic efficiency, investment, innovation, competitiveness, tax policy

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiyotda klasterlashuv jarayoni hududiy va tarmoq rivojlanishining muhim omillaridan biri sifatida qaralmoqda. Klasterlar — bu o‘zaro bog‘liq korxonalar, ilmiy-tadqiqot markazlari, ta‘lim muassasalari va boshqa institutlarning ma‘lum bir hududda jamlangan shakli bo‘lib, ular o‘zaro hamkorlik orqali yuqori samaradorlikka erishadi. Ushbu tizim innovatsiyalarni tez joriy etish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va raqobatbardoshlikni oshirish imkonini beradi.

Klasterlar faoliyatini rivojlantirishda davlatning roli muhim bo‘lib, ayniqsa soliq rag‘batlantirish mexanizmlari orqali ularning samaradorligini oshirish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Mazkur maqolada klasterlarning iqtisodiy mohiyati, ularning samaradorligini oshirishda soliq imtiyozlarining o‘rni va ushbu yo‘nalishda amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan takliflar ko‘rib chiqiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI


Klaster nazariyasi XIX asrda dastlab nemis iqtisodchisi Iogan Genrix fon Tyunen va uning izdoshlari V.Launxard hamda A.Veberlar tomonidan ilgari surilgan. A.Marshall o‘zining “Iqtisodiyot fani prinsiplari” ishida tadqiqot obyekti tarzida shahar aglomeratsiyasi va industrial hududlarni tanlab, o‘tkazgan tadqiqotlarida samaradorlik va ishlab chiqarish geografik lokalizatsiyasi o‘zaro bog‘liqligini bayon etgan. U korxona va tashkilotlar samaradorligi ularning iqtisodiy zonalar yaqinida geografik joylashuviga bog‘liqligini isbotlagan. B.Lundval va B.Yonsonlar esa klaster nazariyasi bilan bog‘liq “Rivojlanish bloklari” konsepsiyasini taklif etganlar hamda soha yoki hududiy ishlab chiqarish birlashmalari, butun mamlakat aholisini uzluksiz o‘qitish jarayoni milliy iqtisodiy yuksalish va raqobatbardoshlik manbai ekanligini ta‘kidlaganlar. Klaster nazariyasining zamonaviy talqini XX aspning 80-yillarida to‘laonli shakllandi. M. Poter yirik raqobatbardosh kompaniyalar ma‘lum hududlarda konsentrsiyalashuvga moyilligini empirik jihatdan isbotlagan.

METODOLOGIYA

Tahlil jarayonida ma‘lumotlarni statistik guruhlash, qiyosiy va trendli tahlil usullaridan foydalanildi. Maqolada iqtisodchi olimlarning klaster tizimini iqtisodiyotda tutgan o‘rniga qaratilgan ilmiy-nazariy qarashlari qiyosiy tahlil qilingan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Klaster tushunchasi iqtisodiy adabiyotlarda birinchi bor keng ko‘lamda izohlangan bo‘lib, u hududiy ixtisoslashuv asosida tashkil etilgan ishlab chiqarish tizimini anglatadi. Klasterlar quyidagi asosiy xususiyatlarga ega:




1-rasm. Klasterlar xususiyati¹

¹ Manbalar asosida muallif ishlanmasi

Klasterlarning iqtisodiy ahamiyati ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, eksport salohiyatini kuchaytirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va hududiy rivojlanishni jadallashtirishda namoyon bo'ladi.

Soliq rag'batlantirish - bu davlat tomonidan iqtisodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlash maqsadida soliq yukini kamaytirish yoki yengillashtirish orqali beriladigan imtiyozlar tizimidir. Asosiy soliq rag'batlantirish turlari:



2-rasm. Asosiy soliq rag'batlantirish¹

Klasterlarda soliq imtiyozlari, soliq yukining kamaytirilishi investorlar uchun jozibadorlikni oshiradi. Natijada yangi ishlab chiqarish quvvatlari yaratiladi, ilmiy-tadqiqot faoliyatiga berilgan soliq imtiyozlari innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantiradi va klaster tarkibidagi kichik va o'rta korxonalar soliq imtiyozlari orqali tezroq rivojlanadi hamda soliq xarajatlarining kamayishi mahsulot tannarxini pasaytiradi va eksport imkoniyatlarini kengaytiradi.

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, klasterlarni rivojlantirishda soliq rag'batlantirish muhim rol o'ynaydi. Jumladan, AQShda texnologik klasterlarga soliq kreditlari beriladi, Janubiy Koreyada innovatsion zonalar uchun soliq imtiyozlari mavjud, Germaniyada kichik biznes uchun soliq yengilliklari joriy qilingan. Ushbu tajribalar shuni ko'rsatadiki, soliq siyosati to'g'ri yo'lga qo'yilgan taqdirda klasterlar tez rivojlanadi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda klaster tizimi, ayniqsa qishloq xo'jaligi va sanoat sohalarida faol joriy etilmoqda. Davlat tomonidan ayrim soliqlardan ozod qilish, yer va mulk soliqlari bo'yicha yengilliklar hamda eksport qiluvchi korxonalar uchun imtiyozlar berilmoqda.

Klasterlarda soliq rag'batlantirishni qo'llashda imtiyozlarning yetarli darajada manzilli emasligi, byurokratik to'siqlar, nazorat mexanizmlarining sustligi hamda soliq siyosatining barqaror emasligi kabi muammolar ham yoq emas.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Klasterlar iqtisodiy rivojlanishning muhim drayveri hisoblanadi. Ularning samaradorligini oshirishda soliq rag'batlantirish mexanizmlari alohida o'rin tutadi.

¹ Manbalar asosida muallif ishlanmasi

To'g'ri tashkil etilgan soliq siyosati klasterlarning raqobatbardoshligini oshiradi, investitsiyalarni jalb qiladi va innovatsion rivojlanishni ta'minlaydi.

Kelgusida soliq rag'batlantirish tizimini takomillashtirish orqali klasterlarning iqtisodiyotdagi ulushini oshirish va barqaror rivojlanishni ta'minlash mumkin.

Klasterlar samaradorligini oshirish uchun soliq imtiyozlarini aniq maqsadli qilish, innovatsion faoliyat uchun alohida soliq rejimini joriy etish, klaster ishtirokchilari uchun yagona soliq platformasini yaratish, monitoring va baholash tizimini kuchaytirish hamda xususiy sektor ishtirokini kengaytirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi. (2020). O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. – Toshkent.
2. B.I.Isroilov. O'zbekistonda soliq tizimi asoslari. 2016 yil.
3. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabr O'RQ-741-sonli "O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuni <https://lex.uz/docs/-5800112>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-iyul PF-5116-sonli "Soliq ma'muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/docs/-3271159>
5. Iqtisodiy tadqiqotlar markazi. Tahliliy materiallar va hisobotlar. – Toshkent.
6. Porter, M. E. (1998). Clusters and Competition. Harvard Business Review.
7. World Bank. (turli yillar). World Development Reports / Jahon banki hisobotlari. <https://www.worldbank.org>
8. O'zbekiston Milliy axborot agentligi. Rasmiy yangiliklar sayti. www.uza.uz
9. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. Rasmiy veb-sayt. www.mf.uz